



AZIZ NESIN "CHEGARA USTIDAGI UY" HIKOYASI TARJIMASINING TAHLILI

Juraqulov Quvonchbek Naim o'g'li

TDSHU va O'zJOKU stajyor-o'qituvchisi Tel: +998939946461 Email:
juraqulovquvonchbekg@mail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola badiiy tarjima jarayonining muhim jihatlarini ko'rib chiqadi. Tarjimonning asliyat matniga sodiq bo'lishi zarurligi bilan birga, ayrim hollarda ijodiy yondashuvning o'rni ham tahlil etiladi. Tarjimada qisqartirish va kengaytirish kabi usullarning asar mazmuniga ta'siri baholanadi. Maqol, matal va idiomalar kabi turg'un iboralarni tarjima qilishning murakkabligi va usullari o'rganiladi. Turk va o'zbek tillari misolida «aldoqchi so'zlar»ning tarjimadagi ahamiyati ko'rsatib beriladi. Yakuniy xulosa sifatida tarjima jarayonining mas'uliyatli va nozik ish ekanligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlari: badiiy tarjima, asliyat matn, tarjima matni, ijodiy yondashuv, turg'un iboralar, maqol, idioma, aldoqchi so'zlar, tarjimashunoslik

Abstract: This article examines the crucial aspects of the literary translation process. While emphasizing the necessity for a translator's fidelity to the source text, it also analyzes instances where a creative approach is adopted. The impact of techniques such as abridgment and expansion in translation on the work's content is evaluated. The complexities and methodologies involved in translating fixed expressions like proverbs, sayings, and idioms are explored. Using Turkish and Uzbek languages as examples, the significance of «false friends» in translation is highlighted. In conclusion, the article underscores that the translation process is a responsible and delicate endeavor.

Keywords: Literary translation, source text, target text, fidelity, creative approach, fixed expressions, proverb, idiom, false friends, translation studies.

KIRISH

Tarjima jarayonida turg'un birikmalar: ibora, maqol va matal kabi birliklarga duch kelinsa, bunday iboralarni tarjima qilinishi haqida Ergash Ochilov shunday usullarni sanab o'tgan: "Frazeologizmlar – turg'un so'z birikmalari: maqol, matal va ibora (idioma)lar. Frazeologizmlar tarjimasida quyidagi usullar qo'llanadi:

- 1) asl nusxadagi frazeologizmga tarjima tilidan teng qiymatli ekvivalent qidirib topish;
- 2) muqobil variant topib qo'yish;
- 3) frazeologizmni aynan, so'zma-so'z tarjima qilish. Har uchala holat ham uchramagan taqdirda tarjimon ularning umumiy ma'nosini aks ettirish bilan kifoyalanadi"⁴².

Agar unday ham bo'lmasa "tilida asliyat tilidagi frazeologizmga mos keladigan variant mutlaqo bo'lmasa, u holda frazeologik birlik so'zma-so'z tarjima qilinadi.

⁴² Ochilov E. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari. – Toshkent: TDSH, 2014. – B. 269.



Muvofiqlikning umuman yo'qligiga asoslangan bunday tarjima kalka usulida tarjima qilish ham deyiladi”⁴³ deb fikr bildirgan.

Tarjimada milliy o'ziga xos so'zlar: milliy kiyim-kechaklar, ovqat nomlari, urfatlari kabilar uchrassa, ularning tarjima qilinishi haqida quyidagicha fikr bildirilgan “Tarixiylik va milliylikning aks etishida eng avval hammaning ko'z oldiga biron-bir millatga xos libos yoki biron davrga tegishli bo'lgan kiyim-kechak va taqinchoqlar gavdalaniadi. Bunday so'zlarni tarjima qilayotganda tarjimonni ko'proq o'zga xalq kishisiga tarjima tili sohibi libosini kiygizib qo'yish xavfi kutadi. Milliylik juda nozik tushuncha. Bu borada arzimas bir xato ba'zida butun bir millat haqida noto'g'ri tasavvur tug'dirib qo'yishi mumkin. Tarjimada realiya sifatida namoyon bo'luvchi so'zlardan yana bir guruhi kiyim-kechak nomlaridir. Tarjimon asliyat tilida so'zlovchi xalqning o'ziga xos libos va poyafzal turlarini yaxshi bilishi va ularni o'girishda puxta bo'lishi kerak”⁴⁴ deydi ustozimiz X. Hamidov.

Turk tili va o'zbek tili bir-biriga yaqin til bo'lgani uchun ba'zi maqollarni so'zmaso'z tarjima qilsa ham ma'no chiqadi, lekin u maqolning o'zbek tilidagi muqobilini topib ishlatish maqsadga muvofiq bo'ladi. Tarjimashunos olim X.Hamidov bunga quyidagi misolni beradi: “Ahsan Batur boshga tushganni ko'z ko'radi maqolini “Adolat manzili” asarini tarjima qilish jarayonida başa düşeni göz görürmüsh shaklida tarjima qilgan. Aslida buni qo'pol xato deb hisoblash ham adolatdan bo'lmaydi, chunki turk kitobxoni gap nima ekanligini darhol fahmlaydi. Shunga qaramay, maqolning turk tilidagi nutqda faol qo'llanilayotgan başa gelen çekilir ekvivalentini ishlatish maqsadga muvofiq bo'lar edi”⁴⁵.

Tarjimashunos olim X.Hamidov bu haqida quyidagicha fikr bildirgan “har bir xalqning o'z e'tiqodi, o'ziga xos milliy, ma'naviy qadryatlari, maqol va matallari uchun asos qilib olingan timsollari, obrazlari bor. Maqol yoki matal boshqa tilga ko'chganda uning shakli emas, mazmuni qayta yaratiladi. O'ziga xos shakli, so'z yoki obrazning asliyat tilida anglatilgan mazmuni ifoda etilmay qolgan matal maqollar boshqa xalq nazarida uni yaratgan xalqning donishmandligidan darak berish o'rniga, uning badiiy tafakkuri taxliti to'g'risida noto'g'ri taassurot qoldirishi mumkin”⁴⁶.

Maqsad va vazifalar: Mazkur tadqiqot ishining maqsadi, Aziz Nesinning “Chegara ustidagi uy” asari va tarjima matni ko'rib chiqiladi. Ishning vazifalari quyidagilar:

- Aziz Nesinning “Chegara ustidagi uy” asari tarjimasidagi yutuqlarni aniqlash va uning nima sababdan yutuq sifatida talqin qilinyotganini aniqlash;
- Aziz Nesinning “Chegara ustidagi uy” asari tarjimasida kamchilik deb topilgan jihatlarni o'rganish va kamchiliklarni bartaraf etishni aniqlash;

Usullar: Aziz Nesinning “Chegara ustidagi uy” asarining asl nusxasi va o'zbekcha tarjimasi qiyoslash va tahlil qilish usulidan foydalanildi.

Tadqiqot manbasi: Aziz Nesinning “Chegara ustidagi uy” asarining asli va o'zbekcha tarjimasi hisoblanadi.

⁴³ O'sha asar. – B. 121.

⁴⁴ Hamidov X. O'zbek-Turk tarjimachiliginining dolzarb muammolari. – Toshkent, 2019. – B. 25.

⁴⁵ Hamidov X. O'zbek qissa va romanlari turk tilida. – Toshkent, 2022. – B. 201-202.

⁴⁶ O'sha asar. – B. 197-198.



Tadqiqot obyekti: Tadqiqotning obyekti sifatida Aziz Nesinning "Chegara ustidagi uy" asaridagi tarjimada muammoli holatlar: personajlar nutqi, turg'un iboralar, gap qutulishidagi o'zgarishlarning tarjimadagi aksi hisoblanadi.

Natija va mulohazalar: Bu hikoyani tarjimasni umuman olib qaralganda juda yaxshi tarjima qilingan deyishimiz mumkin, lekin bu tadqiqot davomida ba'zi joylarda tarjimonidan boshqacha yodashib tarjimaning yanada yaxshiroq chiqishi mumkinligiga misollar tariqasida odinlik kiritib ketamiz. Tarjima jarayonida asliyat matn va tarjima matnining bir-biriga mos emasligi ko'zga tashlanadi. Bunday usul tarjimashunoslikda keng qo'llaniladigan usul bo'lishiga qaramay bunday usuldan foydalanish tavsiya etilmaydi. Asliyat matnning asosiy mazmuniga putr yetkazmaslik uchun bu usuldan foydalanmaslik kerak.

Q.Musaevning fikriga ko'ra, ba'zida iste'dodsiz ijodkor o'zining sayoz asarini mohir tarjimon ixtiyoriga topshiradi. Natijada tarjimada asar xiyla mukammallik kasb etadi. Tarjimonning o'zidan qo'shishi, qisqartirishi va o'zgartirishiga uchrashi oqibatida ko'pincha o'z aslidan mutlaqo farq qiladigan yangi asar dunyoga keladi. Ularni asliyat va tarjimada o'qigan kitobxon muallifning bir mavzudagi ikki asari deb o`ylashi hech gap emas.⁴⁷ Shunday ekan tarjima jarayonida asliyat matnga muvofiq tarjima qilingan maqsadga muvofiq deb qaraladi. Badiiy asarda faqatgina shakl va mazmunning o'zigina emas, belki yozuvchining o'ziga xos uslubi ham katta ahamiyat kasb etadi. Agar yozuvchining uslubini tarjima jarayonida yo'q qilinsa, u holda tarjima matni bilan asliyat matndagi ma'nolar farq qilib qoladi. Bu esa asliyat tilda juda mashhur bo'lgan bir asar tarjima asari unchalik ham mashhurlikka erisha olmaydi. Shunday ekan tarjima jarayoni ham juda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bu hikoya tarjimasida bira yarim sahifa tarjima jarayonida tashlab ketilgan.

Katta hajmdagi bu qisqartirish asarning asl ma'nosiga ta'sir o'tqazmasdan qolmaydi. Tarjima matnda asar qahramoni bir marta o'g'rilik haqida shikoyat qilish uchun tegishli idoraga borgan, lekin asliyat matnda bir necha bor shikoyat qilib borgani aks ettirish yo'li bilan qahramonlarning ancha ovora bo'lganini ko'rsatib beradi. Bunday tarjima asarning tub ma'nosiga ta'sir qilmasa-da, ta'sirchanligini pasaytiradi.

Tugallanmagan gaplarni o'girishda tarjimon asliyatda mavjud bo'lgan ayrim bo'laklarni tashlab yuborib, asar yo'nalishiga ijodiy yondashgan holda, o'zbek tili me'yoriga zid kelmaydigan va asliyat ruhiga putur yetkazmaydigan so'z, ibora va bo'laklarni tarjimada qo'shib aks ettirishga to'la haqlidir⁴⁸. Quyidagi gaplarda tarjimon o'quvchilar uchun yanada tushunarli bo'lishi uchun gaplarni kengaytirib ketgan.

İhtiyarın karısı⁴⁹,

Cholning xotini ham gapga aralashdi: ⁵⁰

Hayrola? dedi⁵¹.

⁴⁷ Ochilov E. Tarjimashunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent, 2014. – B. 46

⁴⁸ O'sha asar. – B. 125

⁴⁹ <https://www.cafrande.org/aziz-nesinin-aziz-nesinden-sectikleri-sinir-ustundeki->

⁵⁰ Turkiy adabiyot durdonalari. Aziz Nesin. – Toshkent, 2022. – B. 267

⁵¹ <https://www.cafrande.org/aziz-nesinin-aziz-nesinden-sectikleri-sinir-ustundeki->



Tinchlikmi? – dedi baqqol menga qayrilib⁵².

İhtiyara sert sert baktim:⁵³

Qariyaga hajl bilan e'tiroz bildirdim: ⁵⁴

"Tilning asl qaymog'i, uning o'ziga xos xususiyatlarini va tabiatini belgilaydigan, uning kamolot darajasini qanday ekanligini ko'rsatadigan, boshqa tillar o'rtasida tutgan o'rnini tayinlaydigan muhim omil bo'lgan narsa – undagi maqol, matal, idiom ava shu kabi ko'chma ma'noli birikmalardir. Bunday birikmalarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilishning g'oyat murakkab va muhim ish ekanligi bu masalani badiiy tarjima nazaryasining asosiy problemalari qatoriga kiritishga sabab bo'lmoqda"⁵⁵. Tarjimon asliyatda turg'un ibora berilgan bo'lsa, turg'un ibora bilan tarjima qilgani maqsadga muvofiq sanaladi. Bu haqida tarjimashunos olim Ergash ochilov shunday fikr bildirgan "Maqol, matal va idiomalar tarjimasida uch prinsip hukm suradi: 1) asl nusxadagi frazeologizmga tarjima tilidan teng qiymatli ekvivalent qidirib topish; 2) asar o'girilayotgan tildan monand muqobil variant topib qo'yish; 3) frazeologizmni aynan, so'zma-so'z tarjima qilish. Har uchala hol ham uchramagan taqdirda tarjimon ularning umumiy ma'nosini aks ettirish bilan kifoyalanishga majbur bo'ladi"⁵⁶.

İhtiyar orali bile olmadı⁵⁷.

Qariya pinagini ham buzmadı. ⁵⁸

Yuqoridagi misolda orali olmak iborasi mavjud. Tarjimon bu iborani o'zbek tilidagi pinagini buzmaslik iborasi bilan juda mohirona tarjima qilgan. Pinagini buzmaslik iborasi o'ziga qaratilgan gap yoki harakatga bila-ko'ra turib e'tibor qilmaslik o'zini go'yo hech narsa sezmagandek tutmoq⁵⁹ ma'nolarini bildiradi.

–Hah, hah, hah! Diye insanı tüylerini diken diken eden bir kahkaha yükseldi.

–Ha, ha, ha, – qorong'ulikdan etni jimirlatadigan qahqaha yuksaldi⁶⁰.

Yuqoridagi gap tarjimasiga to'xtaladigan bo'lsak, yuqorida ham ta'kidlaganimizdek tarjimon asliyatda berilgan turg'un iborani mohirona tarjima qilgan. Bunday tarjimalar yozuvchi uslubini tarjimada saqlab qolishga va asarning asliyatga muvofiq kelishiga xizmat qiladi.

Turk tilidan o'zbek tiliga yoki o'zbek tilidan turk tiliga tarjima qilish oson ishdek ko'ringani bilan tarjima jarayonida bir qancha qiyinchiliklarga duch kelish mumkin. Bunga misol tariqasida aldoqchi so'zlar, aldoqchi iboralarni aytishimiz mumkin. Turk tilida zor so'zi qiyin ma'noni beradi, o'zbek tilida ham xuddi shunday so'z mavjud zo'r o'zbek tilida ajoyib degan ma'noni bildiradi. Bu faqat so'z bilan chegaralanib qolmasdan iboralarda ham uchrashi mumkin. Bel bağlamak iborasi turk tilida ishonib qolmoq, birisiga ishonib orqasida ergashmoq ma'nolarini bildirsa, o'zbek tilidagi bel

⁵² O'sha asae. – B. 264

⁵³ <https://www.cafrande.org/aziz-nesinin-aziz-nesinden-sectikleri-sinir-ustundeki->

⁵⁴ O'sha asar. – B. 264

⁵⁵ Salomov G'. Rus tilidan o'zbekchaga maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalalariga doir.

– Toshkent: Fan, 1961. – B. 18.

⁵⁶ Ochilov Ergash. Badiiy tarjima masalalari (O'quv qo'llanma). – T., 2013. – B. 87

⁵⁷ <https://www.cafrande.org/aziz-nesinin-aziz-nesinden-sectikleri-sinir-ustundeki->

⁵⁸ O'sha asar. – B. 264

⁵⁹ Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O'ravzova, K.Rixsiyeva. O'zbek tili frazeologik lug'ati. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 390.

⁶⁰ Turkiy adabiyot durdonalari. Aziz Nesin. – Toshkent, 2022. – B. 265



bog'lamoq iborasi zam qilmoq, bir ishni qilishga kirishmoq ma'nolarini bildiradi. Quyidagi gapda ham xuddi shunday aldoqchi so'zlarga misol bo'ladigan jihat mavjud.

– Bizim bildigimiz bir kiraci bir eve tasindi mi, konu komsu "güle güle oturun" a gelirler⁶¹.

– Odatda, bir kirachi endi ko'chib kelganda qo'ni-qo'shni kelib, yangi uy qutlug' bo'lsin deydilar⁶².

Yuqoridagi gapdag'i kiraci so'zini tarjimon bir o'rinda kirachi yana bir o'rinda ijarchi shaklida tarjima qilgan. Bulardan jarachi varianti asliyatdagi ma'noga to'laqonli mos keladi deyishimiz mumkin.

Xulosa: Ushbu maqola badiiy tarjima jarayonining murakkabligi va nozik jihatlarini chuqur tahlil qiladi. Unda tarjimonning asliyat matniga sodiq qolishi muhimligi ta'kidlanar ekan, ba'zi hollarda tarjimonning ijodiy yondashuvi ham o'rinni ekanligi e'tirof etiladi.

Qomusiy olim Q.Musaevning fikrlari orqali tarjimada haddan tashqari erkinlikka yo'l qo'yish asliyat mazmunining buzilishiga olib kelishi mumkinligi ko'rsatib o'tiladi. Maqolada badiiy asarning nafaqat mazmuni, balki yozuvchining o'ziga xos uslubi ham tarjimada saqlanib qolishi zarurligi alohida urg'ulanadi.

Tarjima jarayonida uchraydigan qisqartirishlar va kengaytirishlar tahlil qilinib, ularning asar ta'sirchanligiga ta'siri ochib beriladi. Turg'un iboralarning tarjimasi alohida e'tiborga olinib, ularni muqobil iboralar bilan berishning afzalliklari ko'rsatiladi. Shuningdek, turk va o'zbek tillaridagi "aldoqchi so'zlar" va iboralar misollar orqali tahlil qilinib, tarjima jarayonidagi potentsial xatolar ko'rsatib beriladi. Maqola yakunida muallif tarjima oson ish emasligini ta'kidlab, tarjimonning mahorati va ehtiyyotkorligi muhimligini xulosa qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXARI:

1. . Aziz Nesin. İt kuyruğu. – İstanbul: Türkiye Ticaret Matbaası, 1955.– 129 s.
2. Salomov G'. Tarjima nazaryasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1983
3. Ochilov E. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari (o'quv qo'llanma). – T.:2014. 272 b
4. Egamova Y. Tarjimada personajlar nutqidagi jonli til elementlarini aks ettirish masalasi // Badiiy tarjima – do'stlik quroli (Maqolalar to'plami). – Toshkent, 2017. 33-34-betlar.
5. Önal Mehmet. Edebi dil ve üslup. – Erzurum: Atatürk üniversitesi, Türkiyat araştırmalar enstitüsü dergisi, 2008. – 210 s.
6. Durmuş İsmail. Üslup cilt II. – İstanbul: TDV İslam ansiklopedisi, 2012.– 96 s.

⁶¹ <https://www.cafrande.org/aziz-nesinin-aziz-nesinden-sectikleri-sinir-ustundeki->

⁶² O'sha asar. – B. 264



7. Çoban Ahmet. Edebiyatta üslup üzerine. – Ankara: Akçağ, 2004. – 160 s.
8. Yo'ldoshev B. Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional uslubiy xususiyati: Filol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 1993. – 297 b.
9. Turkiy adabiyot durdonalari. Aziz Nesin. – Toshkent, 2022. – 442 b.
10. Hamidov X. O'zbek-turk tarjimachiligining dolzarb muammolari. – Toshkent: 2019. – 128 b.
11. Hamidov X. Maqol va idiomalar tarjimasi muammolari. – Toshkent, 2017. – 128 b.
12. Hamidov X. O'bekchadan turkchaga nasriy tarjima muammolari. –Toshkent: ToshDSHI, 2014. – 148 b.
13. Ochilov E. Tarjimashunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent, 2014. – 227 b.
14. Ochilov Ergash. Badiiy tarjima masalalari (O'quv qo'llanma). – T., 2013. – 170 b.
15. <https://www.cafrande.org/aziz-nesinin-aziz-nesinden-sectikleri-sinir-ustundeki->

O'ZBEKISTONDA

FANLARARO INNOVATSIVALAR

VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI

2025
20 May

ISSN: 2181-3302



Google
Scholar

Zenodo OpenAIRE

doi
digital
object
identifier

OPEN
ACCES



O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIVALAR VA
ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI
40-SON
20.05.2025



“O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIVALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR” JURNALI



«BEST PUBLICATION»

Ilm-ma'rifat markazi ©

MATERIALARI TO'PLAMI

20-MAY, 2025-YIL

40-SON

O'ZBEKISTON
2025





Ushbu to'plamda "O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali" ilmiy jurnaliga kelib tushgan maqolalar o'rin olgan. Mazkur jurnalda zamonaviy ta'ilim tizimini rivojlantirish jarayonida innovatsion ta'ilim texnologiyalarini joriy etish va loyihalashish, integratsion ta'ilimi rivojlantirishda yo'nalishlar bo'yicha kreativ g'oyalar, takliflar va echimlarni amalga oshirish maqsad qilib olingan. Mazkur jurnal materiallaridan OTM professor-o'qituvchilar, akademik litsey va kasb-hunar kollejleri va umumta'ilim maktab o'qituvchilar, mustaqil tadqiqotchilar, magistrantlar, ilmiy xodimlar, iqtidorli talabalar hamda shu sohada ilmiy ish olib borayotgan tadqiqotchilar toydaishlari mumkin.

Eslatma! Jurnal materiallari to'plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.



TAHRIRIYAT

Bosh muharrir:

Maqsudov Ulug'bek Qurbanovich

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Mas'ul muharrir:

Yusufjonov Quyoshbek Komiljon o'g'lli

Farg'ona davlat universiteti

Mas'ul kotib:

Hakimov Iqboljon

Farg'ona Politeknika instituti

Texnik xodim:

Sultonov Sardorbek No'monjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti

TAHRIR KENGASHI AZOLARI

Tuychiyeva Inoyat Ibragimova

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Shamsiyeva Maxfuzaxon Xuja qizi

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sabirova Gulnoza Sadikovna

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ayrapetova Alyona Gennadevna

Amir Temur nomidagi O'zbekiston respublikasi Davlat xalqfizilik xizmati akademiyasi.

Psixologiya fanlari doktori (DSc)

Mamatova Nodira Muxtarovna

Tibbiyot fanlari Doktori (Ds)

Rasulova Vasila Battirovna

Toshkent farmatsvetika instituti, Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Nikadam bayeva Hilola Battirovna

Uzbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Pirimov Akram Pirimovich

Navoiy davlat pedagogika instituti, dotsent

Shodiyev Furqat Davranovich

Navoiy davlat pedagogika instituti, Texnika fanlari

nomzodi, Dotsent

Qurbanova Muqaddas Omonovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Baltayeva Ikbol Tadjibayeva

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti. O'zbek tili va adabiyoti kafedrasи dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

Sayfullayeva Ra'noxon Raupovna

O'zbekiston milliy universiteti, Filologiya fanlari doktori, professor.

Popova Tatyana Igorevna

SunkiPeterburg davlat universiteti. Rossiya.Doctor filologicheskix nauk, professor.

Manzurxon Ernazarova

Tojikiston. Xo'jand davlat universiteti. Filologiya fanlari doktori, professor.

Berdaliev Abduvali

Uluqov Nosirlon Muhammalievich

Navoiy davlat pedagogika instituti.Filologiya fanlari doktori, professor.

Namangan davlat universiteti.Filologiya fanlari doktori.

Jumanazarova Guljahan

Filologiya fanlari doktori, jizzax davlat universiteti.

A.A.Qosimov



Farg'ona davlat universiteti. Filologiya fanlari doktori, professor,
Jo'rayev Habibullo Abdusalamovich
Filologiya fanlari doktori. Farg'ona davlat universiteti.

Fayzimatov Shuxratjon No'monovich

Farg'ona politeknika instituti. Texnika fanlari doktori.

Hoshimov G'anijon Mirzaaxmadovich

Andijon davlat universiteti. Filologiya fanlari doktori.

Hulkar Hamroyeva

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent. O'zbekiston respublikasi yozuvchilar uyushmasi
a'zosi, jurnalist.

O'rınboyev No'monjon Or'monovich

Filsafat fanlari nomzodi, dotsent. XTMIOJO'

Qurbanova Muqaddas Omonovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori. Farg'ona davlat universiteti.

Qunduzxon Atabayeva

Filologiya fanlari doktori, professor. O'zbekiston. Jahon tillari universiteti.

Hojaliev Ismoiljon Tojiboyevich

Farg'ona davlat universiteti filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Erofeeva Inna Nikolaevna

Kandidat pedagogicheskix nauk, dotsent. Sankt Peterburg davlat universiteti. Rossiya.

Toshtemirova Zamira Sotvoldiyeva

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Farg'ona davlat universiteti.

G.O.Abdugafurovich

Filologiya fanlari nomzodi. Farg'ona davlat universiteti.

Xudayarov Oybek Odilovich

Toshkent Davlat igitodiyot universiteti dotsenti

Muxidinova Muniraxon

Pedagogika fanlari/fanlari doktori, (PhD)

Matsaidova Sayyora Xudayberganova

Urganch davlat universiteti, Geodeziya, kartografiya, geografiya kafedrasi, pedagogika fanlari nomzodu, dotsent

Djumananjazova Yulduzoy Abdusharipovna

Urganch davlat universiteti, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va IPKT bo'lini boshlig'i, qishloq ho'jaligi fanlari nomzodi,

agrokompyo fanlari dotsenti

Ismayılova Intizar

Urganch davlat Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya kafedrasi, qishloq ho'jaligi fanlari nomzodi, dotsent

Latipova Umida Yusufboyeva

Urganch davlat universiteti. Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Nurullayeva Manzura Shavkatovna

Urganch Davlat universiteti "Biologiya" kafedrasi dotsenti, qishloq xo'jalik fanlari doktori (PhD)

Alloberganova Zebo Bekmamatovna

Urganch Davlat universiteti tabiiy va qishloq xo'jaligi fanlari fakulteti Biologiya kafedrasi, Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Babadoranova Zamira Khikmatovna

Buxoro davlat tibbiyot instituti Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasi dotsenti, tibbiyot fanlari doktori (DSc).

Matyakubova Yulduzkhon Amanbayeva

Urganch Davlat universiteti tabiiy va qishloq xo'jalik fanlari fakulteti Biologiya kafedrasi, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, dotsent

Ochilova Vazirakhon Rustamovna

O'zbekiston Davlat Juhon tillari universiteti, ingliz tili fakulteti i, ingliz tilini o'qitish metodikasi kafedrasi katta o'qituvchisi

Pedagogika fanlari doktori (PhD)

Abdurakhimov Mingzhigit Kattabekovich

Samargand Davlat universiteti agrotexnologiya va Tuproqshunoslik kafedrasi professori



MUNDARIJA:

1.	Усмонова Манзура Исаковна НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ ОБУЧЕНИЯ ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКОЙ ЛЕКСИКЕ РУССКОГО ЯЗЫКА В НЕЯЗЫКОВОМ ВУЗЕ.	10
2.	Умарова Н.Э. Муслимова Р.М ТЕМАТИЧЕСКАЯ ПРЕЗЕНТАЦИЯ КАК СРЕДСТВО ОБУЧЕНИЯ УСТНОЙ РЕЧИ В ТЕХНИЧЕСКОМ ВУЗЕ	13
3.	Qodirberganova Kumush Rasulbek qizi Polvonova Dinora Ulug`bek qizi OQSILLAR MAVZUSINI O'QITISH METODIKASI	17
4.	Jumaev Giyosjon Abdivahobovich Normo'minov Anvarjon Asqar o'g'li Abdiraimova Zulkumor G`ofur qizi Majidova Yulduz Doniyorovna ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND THE EVOLUTION OF CRIME PREVENTION: THE ROLE OF FACIAL RECOGNITION IN URBAN SAFETY	22
5.	Yuldashev Begzodjon Baxtiyorjon o'g'li NODAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARIDA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYANI YUKSALTIRISH.	35
6.	Jonqobilov Mirjalol THE INTERSECTION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND CYBERSECURITY: OPPORTUNITIES, THREATS, AND STRATEGIC IMPLICATIONS	46
7.	Сотиева Гузал Хасановна РАБОТА С ПАМЯТЬЮ В ОПЕРАЦИОННЫХ СИСТЕМАХ, ВИДЫ И ЗАДАЧИ ПАМЯТИ	56
8.	Ikromidinov B.A Akbarov Kh.O Fayzimatov B.N CUTTING FLUID WASTE MANAGEMENT IN ASIAN METALWORKING INDUSTRIES: ISSUES AND SUSTAINABLE SOLUTIONS	59
9.	Davronbayev Ibrohim Ne'matjon o'g'li TARIX FANINI O'QITISH UCHUN INNOVATSION TA'LIMIY O'YIN: KOGNITIV VA INTERAKTIV YONDASHUV	66
10.	Nodirova Maftuna Rustamovna O'ZBEKISTONDA LINGVOPOETIKANING RIVOJLANISHI: TUSHUNCHALAR, YONDASHUVLAR VA ILMIY TADQIQOTLAR.	73
11.	Нажмиддинов Боходиржон Баҳритдин угли Рузибаев Дилшод Рузиметович Сарбоев Эркин Раҳимбоевич БОЛЕЗНЬ КАСТЛЕМАНА В КЛИНИКЕ ЧЕЛЮСТНО-ЛИЦЕВОЙ ХИРУРГИИ	77
12.	Нажмиддинов Боходиржон Баҳритдин угли Рузибаев Дилшод Рузиметович Сарбоев Эркин Раҳимбоевич	80



	СОЧЕТАННАЯ ТРАВМА АЛЬВЕОЛЯРНОГО ОТРОСТКА И ЗУБОВ ВЕРХНЕЙ ЧЕЛЮСТИ	
13.	Нажмиддинов Боходиржон Бахритдин ўгли Рузибаев Дилшод Рузиметович Сарбоев Эркин Рахимбоевич ОСОБЕННОСТИ КЛИНИЧЕСКОЙ КАРТИНЫ ПЕРЕЛОМОВ НИЖНЕЙ ЧЕЛЮСТИ	83
14.	G'ulomova Moxinur Inomjon qizi <i>BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING INGLIZ TILIDAGI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH</i>	87
15.	Kendjayeva Dildora Xudayberganovna Normo'minov Anvarjon Asqar o'g'li Rajabova Maftuna Rustamovna <i>SUN'YIY INTELLEKT TEHNOLOGIYALARINING O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM TIZIMIGA JORIY ETILISHI: IMKONIYATLAR, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR</i>	91
16.	Sodiq Qurbanov <i>ҚАРЗ ОЛДИ-БЕРДИ КЎРИНИШЛАРИ ВА ТАРТИБИ</i>	107
17.	Maxmudova Mohinur <i>ZAMONAVIY ARXITEKTURA VA DUBAY: YANGI ASRNING ARXITEKTURA PESHOVI.</i>	110
18.	Mehrinisho Qoyilova Ruhshona Muhammadova Gulsanam Shokirova <i>ZARARLI ODATLAR VA UNING YOSHLAR SALOMATLIGIGA TA'SIRI</i>	114
19.	Qulmurotov B.E Maxmadiyorov B.M Johonov S.G' Qo'ziyev SH SH <i>INGICHKA TOLALI G'OZANI TURLI SUG'ORISH TARTIBLARINING OTLOQI - TAQIR TUPROQLAR G'OVAKLIGIGA TA'SIRI</i>	119
20.	Mirzaaxmedova Maftuna Olimbek qizi <i>TALAFFUZIDA NUQSONI BOR BOLALARGA PSIXOLOGIK YONDASHUV</i>	123
21.	Sidikova Dilnoza Serikbayevna <i>O'ZBEK TILI DARSLARIDA ARFOEPIYA MEYYORLARI VA NUTQ MADANIYATI</i>	126
22.	Azizova Feruza Vasikovna <i>O'ZBEKISTON-TURKIYA MUNOSABATLARINING YANGI DAVRI</i>	130
23.	Oydinov Sh.B <i>MUSTAQILLIK DAVRI O'ZBEKISTON SAN'ATI</i>	136
24.	Karimova Aofat <i>O'ZBEKISTON AMALIY SAN'ATIDA FARG'ONALIK HUNARMANDLAR IJODI</i>	145
25.	Ruziqulova N.A <i>ZARARLI QORINOYOQLI MOLLYUSKALAR VA ULARGA QARSHI KURASH CHORALARI</i>	152
26.	Kariyeva Munis Dilshodovna <i>ISLOM IQTISODIYOTIDA MOLIYAVIY INKLUYUZIYANI RIVOJLANTIRISH</i>	156



27.	Joldasbayeva Mexrijamal Turumbetova Z YOSHLARDA MUSTAQIL FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH: AMALIY YONDASHUVLAR	161
28.	Xurramov A.B HTML RO'YXATLARI	165
29.	Babadjanov Elmurod Satimbaevich Oskinbaev Mirzabek Xojamuratovich XAVFSIZ RFID IDENTIFIKATSİYALASH TİZİMİ	171
30.	Xolmurodova Sevinch Jumanazarovna Mallayev Normamat Ramazonovich "UMUMIY O'RTA TA'LIM TİZİMİNİ YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISH"	176
31.	Baxriddinov Akmaljon Baxromjon o'g'li GEPATIT KASALLIGI VA UNI KELIB CHIQISH SABABLARI	181
32.	Mullaarova Kamilla Alanovna Xalilov Hikmatulla Dilshod o`g`li Muhammadumarova Ruxshona AVTONOM NERV TİZİMİ FIZIOLOGIYASI	186
33.	Ikramova Shaxnoza Odilovna O'ZBEKİSTONDA IQTISODIY O'SISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI: ZAMONAVIY STRATEGIYA VA ISTIQBOLLAR	194
34.	Кадирова М.А Рахимходжаев С.С ПРОЕКТИРОВАНИЕ ПОЖАРНЫХ РУКАВОВ	202
35.	Сайдисаков Сайдахрор Сайдисакович РОЛЬ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ В ИЗУЧЕНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА	206
36.	Juraqulov Quvonchbek Naim o'g'li AZIZ NESIN "CHEGARA USTIDAGI UY" HIKOYASI TARJIMASINING TAHLILI	211
37.	Naim N.A VIRUSLI PNEVMONIYA KASALLIGINI TASHXISLASH MALUMOTLARIGA RAQAMLI ISHLOV BERISH ALGORITMLARI VA AXBOROT TİZİMİ	217
38.	Boymurodova Parizod Rafael qizi THE EFFECTIVENESS OF INNOVATIVE DIGITAL TOOLS AND COMMUNICATIVE METHODS IN TEACHING ENGLISH	220
39.	Ikromova Farangiz Yigitali qizi O'ZBEKİSTONDA BOLALAR XOR SAN'ATINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI SHERMAT YORMATOV MISOLIDA	223
40.	Orzieva Münisxon Xayıriddin kizi «ЭКСПРЕССИВНОЕ СЛОВООБРАЗОВАНИЕ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ РЕЧИ (НА МАТЕРИАЛЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ РУССКИХ КЛАССИКОВ)»	226
41.	Yoqubova Shahlo Sirojiddin qizi TILSHUNOSLIKDA ESKIRGAN SO'ZLAR.	230
42.	Gaybullayeva Zilola Muzaffar kizi Baxtiyarov Muxtorjon Yakubovich	233



"STRATEGIES IN TRANSLATION OF OIL AND GAS INDUSTRY TERMS FROM ENGLISH INTO UZBEK "

43.	Boltayev Farxod Qurbonovich XIRURGIYADA HAMSHIRALIK ISHI FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARNING AHAMIYATI	237
44.	Гулбаҳор Қулматова ФҲДЕ ТИЗИМИДА ОИЛАНИНГ ҲУҚУҚИЙ МАҚОМИНИ МУСТАҲКАМЛАШ: ХОРИЖИЙ ТАЖРИБА ВА ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛ"	241

ISSN:2181-3302

SJIF(2024): 6.618

O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSİYALAR VA İLMIY TADQIQOTLAR JURNALI

AZIZ NESIN "CHEGARA USTIDAGI UY" HIKOYASI TARJIMASINING TAHLILI

NOMLI MAQOLASI UCHUN:

Juraqulov Quvonchbek Naim o'g'li

SERTIFIKAT

BILAN TAQDIRLANADI



BOSH MUHARRIR:
U.MAQSUDEV



www.bestpublication.org



www.bestpublication.uz



info.bestpublication@mail.ru